

AMIR TEMURNING SIYOSIY KURASH MAYDONIGA KIRIB KELISHI HAQIDA

Rajabov Mirzo Jo'raqulovich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi Harbiy boshqaruv va liderlik kafedrasida o'qituvchisi podpolkovnik

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: Amir Temur, sobiqqiron, Tarag'ay, barlos, Chig'atoy ulus, beklik, Movarounnahr, qurultoy, adolat, tartib intizom, Temur tuzuklari.

Annotatsiya

Ushbu maqolada Sobiqqiron Amir Temurning tavallud topgan davrida Movarounnahrning siyosiy ahvoli, Amir Temurning siyosiy kuarsh maydoniga kirib kelishi to'g'risida fikrlar yuritilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

KIRISH

Amir Temur o'rta asrlarning buyuk turk askari va qo'mondoni, Temuriylar imperiyasi asoschisi, Oltin O'rda, Mamluk sultonligi, Dehli sultonligi, Usmonli davlati, Kavkaz va Erondagi davlatlarni barisini yengishi ortidan musulmon olamining to'la yetakchisi, yeri 4,4 mln km² ga yetishgan 14-yuzyillikning eng kuchli davlati quruvchisi, 35 yillik boshqaruvi va yurishlari chog'ida biror urushni yutqazmagan qo'shinboshi, o'tmishda ko'rilgan uchta buyuk harbiy-taktik urush va yurush qo'mondonlaridan biri, Temurlilar uyg'onish davri yaratuvchisi, ilm-fan, me'morchilik, san'at va adabiyot homiysi.

Amir Temur turkiy barlos urug'ining biy (urug' oqsoqoli)laridan bo'lish Muhammad Tarag'ay va Buxoro shariat gonunlari sharh-lovchisining qizi Takina Mohbegimlarning farzandi bo'lib, 1336-vilda Shahrisabga yaqin Xo'ja Ilgor qishlog'ida tavallud topgan. Uning to'liq ismi Sohibqiron Amir Temur ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Barkuldir.

Temurbekning siyosatga kirib kelishi



Podshoh o'z so'ziga ega bo'lsin, ishini o'zi bilib qilsin, ya'ni sipoh va raiyat podshohning aytgan so'zini, qilgan ishini o'zi aytadi, o'zi qiladi, hech kimning bunga dahli yo'q, deb bilsin. Shunday bo'lgach, podshoh biror kimsaning saltanat martabasiga sherik bo'lgudek qilib aytgan gapiga va qilgan ishiga ergashmasin. Garchi yaxshi so'zni hammadan ham eshitish zarur bo'lsa-da, lekin boshqalar so'zda va saltanat ishlarida podshohga sherik yoxud undan ustun bo'lmasliklari shart.

XIV asrning 50-60-yillarida Movarounnahr 10 ga yaqin mustaqil bekliklarga bo'linib ketgan. Samarqand viloyatida Amir Bayon Sulduz, Keshda Amir Hoji Barlos, Xo'jandda Amir Boyazid Jaloir, Balxda O'ljaytu Sulduz, Hisori Shodmon chegarasida Amir Husayn va Amir Yasovuriylar o'zlarini hokimi mutlaq deb e'lon qiladilar.

Buning ustiga Sharqiy Turkiston va Yettisuvda tashkil topgan Mo'g'uliston xonlari bir necha bor Movarounnahr ustiga yurish qilib, uni talaydilar. Mo'g'uliston xonlarining vayronagarchilikka olib keluvchi yurishlari, istibdodi va zulmiga qarshi xalq harakati boshlanadi. Mana shunday o'zaro ichki urushlar qizigan, mo'g'ullar zulmiga qarshi mehnatkash xalq harakatlari boshlangan bir davrda mamlakatda yangi siyosiy kuch yetilmoqda edi.

XIV asrning 50-yillari oxirida Movarounnahrda amirlarning o'zaro kurashi kuchayib, mamlakatda siyosiy parokandalik avjiga chiqadi. Mo'g'uliston xonlari Movarounnahrda og'ir siyosiy vaziyatdan foydalanib, bu o'lkada o'z hokimiyatini o'rnatishga harakat qiladilar. Tug'luq Temur 1360-1361-yillarda Movarounnahrda birin-ketin ikki marta bostirib kiradi. Movarounnahr amirlari xalqqa bosh bo'lib mo'g'ul bosqinchilarga qarshi kurashga jur'at eta olmaydilar. Ularning bir qismi dushman tarafiga o'tadi, ikkinchi qismi esa el-yurtini tark etib, o'zga mamlakatlardan boshpana izlaydi. Amir Temurning amakisi Kesh viloyatining hukmdori Amir Hoji Barlos Xurosonga tomon qochadi. 24 yoshli Amir Temur boshqacha yo'l tutadi. U Tug'luq Temur tomonidan Keshga yuborilgan beklar bilan kelishib, xon xizmatiga kiradi. Natijada Tug'luq Temurning yorlig'i bilan o'z viloyatining dorug'asi etib tayinlanadi.

Shu tariqa Amir Temur Movarounnahrda siyosiy vaziyat keskinlashgan, uning mustaqilligini ta'minlash zaruriyati ko'ndalang bo'lib turgan tarixiy sharoitda siyosiy kurash maydoniga kirib keldi. Tug'luq Temur o'g'li Ilyosxo'jani Movarounnahrning hukmdori etib tayinlab, Mo'g'ulistonga qaytib ketadi. Ilyosxo'ja bilan Amir Temurning murosasi to'g'ri kelmaydi. Shu sababli u Movarounnahrning nufuzli amirlaridan biri, Balx hokimi Husayn bilan ittifoq tuzib, mo'g'ullarga qarshi kurash olib boradi. 1363-yilda Amudaryoning chap sohilida Qunduz shahri yonida umumiy dushman ustidan g'alaba qozonadilar. Keyingi ikki yil davomida ittifoqchilar Ilyosxo'ja boshliq jeta lashkarlari bilan bir necha marta jang qiladilar. Nihoyat 1364-yil oxirida ular mo'g'ullarni Movarounnahrdan quvib chiqaradilar.

Biroq, Movarounnahrni qo'ldan chiqarishni istamagan Ilyosxo'ja 1365-yilning bahorida yana Movarounnahr ustiga qo'shin tortadi. Ikki o'rtadagi jang 1365-yil, 22-may kuni Toshkent bilan Chinoz o'rtasidagi Chirchiq daryosi bo'yida sodir bo'ladi. Tarixda u "Loy jangi" nomi bilan shuhrat topadi. Chunki o'sha kuni kuchli jala quyib, jang maydoni botqoqlikka aylangan, hatto otlar loyga botib qolgan. Jangda Amir Temur qo'shini g'olibona harakat qilib, dushman qo'shinining o'ng qanotiga qaqshatqich zarba berayotgan bir paytda Husayn o'z askarlarini raqibning so'l qanotiga tashlamay, jang maydonini tark etadi. Amir Temur chekinishga majbur bo'ladi.

Bu g'alabadan so'ng Ilyosxo'ja hech qanday qarshilikka uchramay, Xo'jand va Jizzax shaharlarini egallab, Samarqand ustiga yuradi. Samarqandda qurolli qo'shin bo'lmasa-da, xalq shahar mudofaasini o'z qo'lga oladi. Uzoq davom etgan mo'g'ullar hukmronligiga qarshi ko'tarilgan bu xalq harakati tarixda Sarbadorlar harakati nomi bilan shuhrat topadi.

Samarqand sarbadorlari

Sarbadorlar harakati XIV asrning 60 yillarida Movarounnahrda mo'g'ul xonlarining hujumi munosabati bilan vujudga keldi. Samarqand sarbadorlariga mudarris Mavlonozoda Samarqandiy, hunarmand Abu Bakr Kuluyi va shahar mahallalaridan birining oqsoqoli, mohir mergan Xurdaki Buxoriylar boshchilik qiladilar. Sarbadorlar mo'g'ullarga Samarqand shahrida qaqshatqich zarba beradilar. Buning ustiga Ilyosxo'janing ot uyuri orasida o'lat tarqab, otlar qirila boshladi. Chorasiz qolgan Ilyosxo'ja avval Samarqand, so'ngra esa butun Movarounnahrni tashlab chiqib ketishga majbur bo'ladi. Shaharda xalq hokimiyati o'rnatiladi va ayrim islohotlar o'tkaziladi. Badavlat mulkdor shaxslarning mol-mulki musodara qilinib, ularga tazyiq o'tkazadilar. Tortib olingan mol va mulklar kambag'al yo'qsillarga tarqatiladi. Jon boshidan olinadigan jiz'ya solig'i bekor qilinadi. Bu hukmdor tabaqalarning keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Natijada Samarqandda beqarorlik vujudga keldi.

Sarbadorlar boshliq Samarqandliklarning mo'g'ullar xoni Ilyosxo'ja ustidan g'alabasi va shahardagi beqarorlik to'g'risidagi xabar Amir Temur bilan Amir Husaynga ham borib yetadi. 1366-yilning

bahorida ular Samarqandga yo‘l oladilar va shahar yaqinidagi Konigil mavzeyiga kelib tushadilar. Beklar sarbadorlarning yetakchilari bilan muzokara olib boradilar. Uchrashuvning birinchi kunida beklar ularning sharafiga ziyofat berib, sha‘niga hamd-u sanolar aytadilar. Biroq ertasi kuni Abu Bakr Kulubiy bilan Xurdakiy Buxoriylar dorga tortiladilar. Mavlnozodani esa Amir Temur o‘rtaga tushib qutqarib qoladi. Shu tariqa sarbadorlar boshliqsiz qoldirilib, harakat bostiriladi. Movarounnahrda Amir Husaynning hukmronligi o‘rnatiladi. Ammo ko‘p o‘tmay Husayn bilan Amir Temur o‘rtasida munosabat keskinlashib, ochiqdan-ochiq nizoga aylanadi. 1366-1370-yillar davomida ular o‘rtasida bir necha bor o‘zaro to‘qnashuvlar ham bo‘ladi.

Temurbek Qarshiga qarab yuradi. Qarshi qamalida Musabekni 12000 otlig‘ini 243 kishi bilan yengadi. 1367-yil Moxon yaqinidagi Bermasda Bekishohga qarshi yuradi. Temurbek dushmani yengadi. Temurbek Husaynbek bilan yarashib Qobul tomon yuradi. Temurbek tomon Qobul shahrini egallayadi. 1368-yil Temurbek Badaxshonni yakson etib qaytadi. Temurbek Husaynbek ila yana yovlashadi. 1370-yil Arxangdagi urushda Temurbek Husaynbekni uzil-kesil yengadi. Sayyid Baraka Temurbekka tabi va yalov taqdim etadi. Temurbek Balx tomon yuradi va Balxni qo‘lga olib Suyurg‘otmish O‘g‘lonni xon qilib ko‘taradi. 1370-yil Temurlilar davlati quriladi.

Temurbek Amir unvonini oladi va Samarqandni boshshahar etib belgilaydi. 1370-yil kuzida yirik Qurultoy o‘tkazadi. 1371-yil Amir Temur Jeta tomon 2 bora yurish qiladi. Hevak o‘lkasi va Kot shahri aslan Chig‘atoy ulusining yerlari bo‘lsada, biroq u yerlar soliqlarini Xorazmdagi So‘fiylar yig‘ar edi. 1372-yil bahorda bu yerlarni qaytarishni ko‘zlab Temurbek Xorazm tomon ilk yurishini qiladi. Temurbek Qot qal‘asini qamal qiladi va qal‘ani egallaydi. Temurbek Qovun arig‘iining oldida Husayn So‘fiy bilan urushib dushmani yengadi. Husayn So‘fiy yengilishdan so‘ng Xorazmga qarab chekinadi va o‘sha yerda o‘ladi. Temurbek Yusuf So‘fiy bilan yarashadi va ortiga qaytadi. Qaytish ortidan Yusuf So‘fiy Qotni talaydi. Temurbek 2-bora Xorazm tomon yuradi. Temurbek qudashilik qilish uchun bu gal Xorazmni urmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova- “O‘zbekiston Tarixi-2016” 152-158 betlar.
2. O‘zbek tarixchisi Turg‘un Fayziyev o‘zining „Temuriylar shajarasi“ (Toshkent, 1995) kitobi.
3. ///C:/Users/ziyonet_12/Downloads/amir-temurning-hokimiyat-tepasiga-kelishi-va-markaziy-davlat-boshqaruvining-takomillashuvi.pdf
4. Temur tuzuklari. B.Ahmedov va A.Ahmedov tahriri. Toshkent-2018: 9-87 b.